

**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OLIY TA'LIM TALABALARINI IJODIY,ILMIY
VA KREATIV KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

Dilnoza Oxunova

FarDU o'qituvchi

Sarvinoz Xakimova

FarDU talaba

Annotatsiya Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy bilimlarini kognitiv faoliyk asosida o'zlashtirish kompetensiyalari va ularning pedagogik texnologiya asosida rivojlantirish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, kognitiv faoliyat, intelektual, motiv, kasbiy bilimlar, qobiliyat, dasturiy ta'lif, loyihalash, modellashtirish.

Pedagogik texnologiyalar ijtimoiy zaruriyat bo'lgani bois dastavval XX asrning 30-yillarida AQShda "ta'lif texnologiyasi" sifatida qo'lla-nib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifodalagan. Bunda «ta'lif texnologiyasi» atamasi faqat texnika vosita-lari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llanilmasdan, balki jahon pedagogikasida yangi yo'naliш – pedagogik texnologiyaga asos soldi. Pedago-gik texnologiyalar asoschilari B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Anderson va boshqalardir.

Hozirgi paytda barcha pedagog-psixolog olimlar pedagogik texno-logiyalarga berilgan eng mukammal ta'rif sifatida YuNESKOning quyi-dagi ta'rifini tan olishadi: "Pedagogik texnologiya bilim berish va uni egal-lashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, bu-tun ta'lif jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmuaviy yonda-shuv usulidan foydalanishdir".

Binobarin, pedagogik texnologiyalar raqobatbardosh kadrlar tayyor-lovchi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari hamda pedagog-o'qituvchiga qo'yiladigan zamon talablari, pedagog o'qituvchining kasbiy mahorati, talabalarning ongi, bilimi, dunyoqarashini o'stirish, faoliyklarini oshirish orqali ta'lif samaradorligiga erishish bilan bog'liq masalalar majmuyini ifodalaydi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarining bu majmuyi pedagog-o'qituvchining umumlashtirilgan modelini va unga asosan, quyidagi asosiy ta-lablarni ifodalaydi:

- ta'lif berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- ta'lif oluvchilarining bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Demak, pedagog-o'qituvchi o'z oldiga qo'yilgan mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish hamda ta'lif-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarash-larni shakllantirish uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- zamonaviy ilmiy, madaniy va texnologik taraqqiyotning mohiyati-ni chuqur tushuna bilishi;
- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtayi nazardan anglashi;
- kompyuterli ta’lim va o’qitishning boshqa texnik vositalarini ta’-lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishi;
- internet tarmog’i to’g’risida tushunchaga ega bo’lishi va undagi axborot texnologiyasi mazmunini teran tahlil qila bilishi;
- pedagogik mehnatning samaradorligini tahlil etish usullarini bilishi;
- umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar, milliy g’oya va milliy mafkura hamda iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar mohi-yatini to’liq tushunib yetishi;
- pedagogik texnologiyalar mohiyati va tamoyillari hamda uning an’a-naviy o’qitish jarayonidagi afzalliklarini bilishi, shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligini ta’minalash uchun pedagogik innovatsiyalarni qo’llay olishi;
- talabalarga o’z fani bo'yicha ta’lim berishda pedagogik texnologiyalar-ni qo’llay olishi, o’quv jarayonini faollashtirish hamda o’quv materiallarini o’zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va talabalarni mustaqil fikrlashga va o’z fikrini erkin bayon etishga o’rgatishi;
- o’z fanining mohir ustasi va fidoyi bo’lishiga erishishi;
- talabalarning barkamol inson bo’lishi uchun ularga o’zining izla-nishlari, ijodkorligi hamda betinim mehnatlari orqali ta’lim-tarbiya beri-shi va hokazo.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar shunday xulosalarga kelishimizga im-kon beradi:

- birinchidan, har qanday kasbda faoliyat samaradorligi va muvaffa-qiyati kasb sohiblarining tayyorgarligi, mahorati, malakasi, o’z omilkor-ligini takomillashtirish ustida nechog’li qunt va izchillik bilan ishlashiga bog’liq;
- ikkinchidan, har tomonlama yetuk pedagog-o’qituvchi bo’lish uchun boshqalarning aql-idrokini o’stirish, ma’rifat ziyyosidan bahramand qilish, komil inson qilib yetishtirish uchun, eng avvalo, pedagog-tarbiyachining o’zi o’z bilimdonligi, zukkoligi bilan ibrat bo’imasdan, ma’naviyatini boyi-tish va kasb mahoratini takomillashtirish ustida izlanmay turib, el ardoqla-gan, talabalar hurmatiga sazovor bo’lgan sevimli tarbiyachi-ustoz, yuksak mahoratli pedagog bo’lishi mumkin emas. Tarbiyachi-ustoz, pedagog-o’qi-tuvchi jamiyatning yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga qo’ygan ijtimoiy buyurt-masining asosiy ishtirokchisidir;
- uchinchidan, eng muhim vazifa – bu talabalarni o’z faniga qiziqtirish. Buning uchun pedagog-o’qituvchi, avvalo, o’zining shogirdlari bo’lmish tala-balar hurmatini qozona oluvchi pedagogik mahoratga ega bo’lishi zarur. Tala-ba pedagog-o’qituvchisiga mehr qo’ysagina, uning faniga qiziqadi va qunt bilan o’rganadi. Zero pedagog-o’qituvchi o’z maqsadiga erishishda talabalar-ning faolligi, ularga do’stona munosabati, uning ortidan ergashish kabi xusu-siyatlarga ega bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar pedagog-o’qituvchi shu ishning uddasidan chiga olsa, dars jarayonida qo’llanilayotgan pedagogik texnologiyalar o’qituvchi va talaba hayotiga yengillik olib kelishi, talabaning qiziqib

o'qishiga imkon berishi va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini kafolatlashi shubhasizdir.

Shunday qilib, pedagog-o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lif jarayo-nida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, didaktik va metodik masala-larning o'z yechimlarini topishi kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'-yobga chiqarishning muhim bosqichidir. Zero, pedagog-o'qituvchi qo'li-da bilimga chanqoq talabalar, fan mazmuniga mos dastur, qo'llanma, darsliklar mavjud bo'lsa, u didaktik va metodik jarayonni muvaffaqiyat-li amalga oshirish uchun bilim faoliyatini tashkiliy shakllaridan samarali foydalanib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izchil va ketma-ket amaliyotga joriy etishi mumkin. Shu boisdan pedagog-o'qituvchi mahoratiga ko'p narsa bog'liq:

1. Pedagog-o'qituvchi davlat ijtimoiy buyurtmasiga mos keladigan ta'lif-tarbiya maqsadini aniq belgilashi kerakki, natijada ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qila bilsin.

2. Pedagog-o'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini o'quv dasturi bo'yicha chuqr egallashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va pedagogik texnologiyalar talablariga mos hol-da, mustaqil ravishda kengaytirib borishi zarur.

3. Pedagog-o'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifati-da didaktik jarayonni amalga oshirish bilan tanish bo'lishi kerak: bu – jadallashtirish va tabiatan monandlik talabidir. Jadallashtirish didaktik masalalarni ma'lum vaqt doirasida birmuncha tez va yuqori saviyada hal eta oladigan didaktik jarayon qo'llanilishini talab etadi. Ta'lif va tarbi-yaga bu talabni aniqlab beruvchi omil – talabalarning muayyan faoli-yatni o'zlashtirish tezligi hisoblanadi. Ikkinchisi o'quv-tarbiyaviy jara-yonni shunday tashkil etishga asoslanganki, bunda mumkin qadar tala-balarning keng doirada tajriba egallashiga imkon tug'diradigan va ular-ning aqliy malakasini rivojlantira oladigan mexanizm vujudga kelsin. Bu talabalarning o'qishga bo'lgan xohishi, istagi, o'quv mehnatiga munosa-batida namoyon bo'ladi.

4. Pedagog-o'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitish-ning samarali shakllaridan foydalana olishi kerak. O'qitishning tashkiliy shakllari to'g'ri tanlanishi pedagogik tizim elementlarining ma'lum qo-nuniyati asosida bir-biri bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bu bog'la-nishlardan foydalanish va eng maqbul bo'lgan tashkiliy shakllarni topish ta'lifda rasmiyatçilikni yo'qotishga yo'l ochadi.

5. Pedagog-o'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan tala-baning ta'lif mazmuni va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar yordamida doimo nazorat qilib borishi lozim. Bu to'g'-rida olingan axborotlar esa, pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkoniyatini beradi yoki tizimdag'i qaysi elementning maz-muniga tuzatish kiritish kerakligini aniqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.V.Klimberi, N.V. Yadrova, R.M. Nurjanova, Talabalarning kognitiv faolligini shakllantirishga zamonaviy yundashular // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. - 2017. - 6сон;
2. J.Yo'Ldoshev, S.Hasanov- "Pedagogik texnologiyalar"- Toshkent «Iqtisod-Moliya», 2009.
3. Oxunova, D. (2022). О 'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Academic research in educational sciences, 3(2), 870-876.
4. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Approaches to Preparing Future Teachers for the Organization of Cognitive Processes in General Secondary Schools. Miasto Przyszłości, 29, 6-7.
5. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Future Teachers' Specific Characteristics of Development of Cognitive Acceptance of Professional Knowledge. Miasto Przyszłości, 29, 1-2.
6. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИЧНОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ. Ученый XXI века, (5-1), 45.
7. SUMMATIV, O. Q. B. F. V., & MEXANIZMLARI, B. DQ Oxunova–Farg'ona davlat universiteti o 'qituvchi. FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 423.
8. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). PEDAGOGICAL BASES OF HARMONIOUS EDUCATION OF STUDENTS. Учёный XXI века, (5-1 (18)), 42-45.
9. Okhunova, D. K. (2022, October). APPROACHES TO EXPANDING THE POSSIBILITIES OF COGNITIVE ACCEPTANCE OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE OF FUTURE TEACHERS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 5, pp. 26-32).